

JAMIYATIMIZDA OILA QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna
Namangan Davlat universiteti Davlat huquqi va
boshqaruvi kafedrasida katta o'qituvchisi.

Toshmuhammedov Dilmuhammad Dilmurod o'g'li
Shukurulloyev Shodiyor To'rajonzoda
Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet
Yurisprudensiya yo'nalishi talabarlari

Annotatsiya:

Ushbu maqolada hozirgi kunda jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oila qonunchiligini takomillashtirishning asoslari va oila qonunchiligida olib borilayotgan islohotlarga e'tibor qaratilgan

Эта статья посвящена основам совершенствования семейного права, которое сейчас является ключевой частью общества, и продолжающейся реформе семейного права.

This article focuses on the basics of improving family law, which is a key part of society, and the ongoing reform of family law now

Kalit so'zlar: oila, oila kodeksi, oila huquqi, oilaviy munosabatlarni tartibga solish, normativ-huquqiy hujjatlar.

Ключевые слова: семья, семейное право, семейный кодекс, семейные отношения, регулирование семейных отношений, нормативно-правовые документы

Key words: family, family code, family law, regulation of family relations, normative-legal documents.

Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning katta siyosati, aytish kerakki, davlat siyosati. Shuning uchun ham dunyoda necha xalq, necha xil millat, necha xil mamlakat bo'lsa, ularning nashr etgan behisob adabiyotlari ichida oila, oilaviy munosabatlar, oilaning jamiyatda tutgan o'rnini xususida fikr yuritilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Katta-katta ensiklopediyalar, hukumat qarorlari, nizomlardan tortib, kodekslargacha uchratish mumkin. Shuningdek, jahon mutaffakirlari oila



haqida quyidagi xulosalarni keltirib o'tgan: "Oila bu bebaho sovg'adir. Uni himoya qilish kerak, yo'q qilish kerak emas" (Syuzan King). "Oila hamma narsani almashtiradi, shuning uchun uni boshlashdan oldin, siz uchun nima muhimroq ekanligi haqida o'ylashingiz kerak, ya'ni hamma narsa yoki oila" (Faina Ranevskaya). "Muvaffaqiyatli nikoh – bu har kuni qayta qurilishi kerak bo'lgan bino" (A.Maurois) [1]. Oilaviy munosabatlar va bu sohaga oid qarashlar tizimida Sharq mutafakkirlaridan biri, qomusiy alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) oilaning ilmiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ibn Sinoning pedagogik va psixologik qarashlari ijtimoiy asosda qurilgan bo'lib, u bola tarbiyasida umuminsoniy tamoyilining qo'llanilishini yoqlab chiqqan va tarbiyachi ota-onalarga bolani qattiq tana jazosidan ko'ra shaxsiy ibrat orqali tarbiyalash ma'qulligini uqtirgan. Axloqiy tarbiya masalalarida alloma oilaning o'rnini alohida ta'kidlangan [2]. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning "Tadbiri manzil" asarida o'ziga xos tarzda bayon etilgan.

Dolzarlighi Hozirgi kunda oila va oilaviy munosabatlarga oid ko'pgina ta'riflarni ko'rib chiqish mumkin. Oila jamiyatning birlamchi asosiy bo'g'inidir, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. "Oila – bu jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni katta bir oila deb olish mumkin. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlilik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining eson-omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir". Oilaning jamiyatdagi nufuzi, e'tibori nihoyatda katta. Jamiyat oiladan tashkil topadi. Oila qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam va barqaror bo'ladi. Jamiyatning ma'naviy qiyofasi ham oilaning qandayligiga, uning ma'rifatiga, oilada tarbiyalanib voyaga yetkazilgan har tomonlama yetuk va barkamol avlodga bog'liqligi tarixda o'z isbotini topgan haqiqatdir. Chunki aynan oila zamirida sog'lom oila muhitida xalqimiz va millatimizning buguni kelajagi bunyod etiladi. "Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish



bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu, orzu va intilishlar bilan yashaydi", – deb yozadi birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida [3].

Birinchi Prezidentimiz tomonidan oila manfaatlarini himoya qilish va ularga ijtimoiy-iqtisodiy yordam ko'rsatish choralarni oshirish maqsadida 1997-yil 9-dekabrda F-796-son farmoyish bilan tashkil etilgan Respublika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Oila manfaatlarini ta'minlash" borasida 1998-yilda amalga oshiriladigan tadbirlar va davlat dasturi tasdiqlandi. 1998-yil davomida yurtimizdagi barcha oilalarga ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy yordamlar ko'rsatilgan [4]. Xususan, oilaviy biznes va oilaviy korxonalarini rivojlantirish maqsadida: – oilaviy korxonalar tashkil etish xohishini bildirgan oilalarga mikro kreditlar berildi; – dehqon, fermer xo'jaliklarini va yuridik shaxs bo'lmagan holda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ishsiz oilalariga imtiyozli kreditlar berildi; – kichik oilaviy biznes, dehqon va fermerlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan texnologik asbob-uskunalar prokati va lizingi punktlari tashkil etildi. Oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik ahvolini o'rganish va ular bo'yicha tavsiyanomalar tayyorlash, oilalar muammolarining pedagogik, ijtimoiy-psixologik, etnik-psixologik va etnik-pedagogik tadqiq etish boshlandi. Oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarini ularning huquqlari bilan tanishtirish darajasini oshirish bo'yicha konferensiyalar, yig'ilishlar, tanlovlar, savol va javob kechalari o'tkazildi. Oliy Sud Plenumiga ajralishlarni kamaytirishga ko'maklashuvchi takliflar kiritgan holda, oilaviy kelishmovchiliklar, ajralishlar ishlari bo'yicha sud amaliyotini o'rganishi uchun ishchi guruh tashkil etildi.

1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarori bilan Oila kodeksi qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 1998-yil 1-sentabrda e'tiboran amalga kiritildi, shu kundan boshlab Oila kodeksiga zid barcha qonun hujjatlari qisman yoki to'liq o'z kuchini yo'qotdi. Vazirlik va idoralar oilaviy munosabatlarga oid normativ huquqiy hujjatlarni ushbu kodeksga moslashtirishi belgilab qo'yildi [5]. Hozirgi kunda Oila kodeksining yurtimizda oilaviy munosabatlarni tartibga solishi hamma uchun huquq va majburiyatlarni anglashda asosiy qonun bo'lib xizmat qilmoqda. Oila huquqi nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi, oilada er va xotin, ota-ona va bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlarni, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalar yig'indisidan iborat.



Oilaviy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq. Oila huquqi u yoki bu darajada deyarli barcha huquq sohalari bilan o‘zaro bog‘liq. Biroq bu bog‘liqlikning daraja va shakllari turlicha namoyon bo‘ladi. Konstitutsiya jamiyatda oilaviy munosabatlar qurilishining bosh va asosiy qoidalarini o‘z ichiga oladi (O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 46-63-66-moddalar) [6]. Shuningdek, Konstitutsiya normalaridan chetlashmagan holatda oila huquqi o‘ziga xos shaklda ishlab chiqilganini ko‘rishimiz mumkin. Oila huquqida ushbu qoidalar qayta ishlanadi, kengaytiriladi, rivojlantiriladi, aniqlashtiriladi. O‘zaro bog‘liqlik aksariyat hollarda oila huquqi va huquqning sohalari me‘yorlarining birgalikda qo‘llanilishida ifodalanadi. Oila huquqi huquq sohalarining shunday guruhida joylashganki, u huquqning tartibga soluvchi tizimosti guruhlaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda jamiyatimizning asosi bo‘lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarning, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, ularni qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha islohotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, jismonan sog‘lom, ma‘nan yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, mustahkam, sog‘lom oilani shakllantirishda mahallaning mavqeyini mustahkamlash va rolini kuchaytirishga doir aniq maqsadga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish uchun 2012-yil O‘zbekiston Respublikasida “Mustahkam oila yili” deb e‘lon qilindi. “Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqaror” degan insonparvar tamoyildan kelib chiqqan holda “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi amalga oshirildi [7]. 2018- yil 27-iyundagi PQ-3808-son **Prezident qarori** bilan O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi ishlab chiqildi [8]. Unga ko‘ra, O‘zbekistonda oilani rivojlantirishga global, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qaraladi [10]. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali, birinchi navbatda, “Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etishga qaratilgan yangi oila modelini shakllantirishning alohida mohiyatini hisobga olgan holda, davlat siyosatining ustuvor vazifalari va asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. 2021-yil 19-yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev navbatdan tashqari sessiyasidagi so‘zlagan nutqida “Eng katta baxt, bu – oila men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch



bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin!”, – deya ta’kidlagan. Oila va nikoh munosabatlari oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, milliy qadriyatlarga asoslangan, xalqaro huquq normalari talablariga javob beradigan qonunchilik bazasi uzluksiz takomillashtirilmoqda. Islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad har bir oilaning huquq va manfaatlarini, orzu-istaklarini ro‘yobga chiqazish, ular uchun yurtimizda munosib turmush tarzini yaratish, oilaviy munosabatlarni ta’minlash va oila institutlarini har tomonlama qo‘llabquvvatlagan holda, jamiyatimizning barqaror taraqqiyotiga erishishdir.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz har bir oilaning ma’nan sog‘lom hayot kechirishini, unda ulg‘ayayotgan yosh avlodning komil inson sifatida voyaga yetib, yurtimizning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo‘shishi uchun butun kuchlarini safarbar qilmoqdalar. Amaldagi islohotlarning qanchalar oila mustahkamligiga qaratilganiga qaramay, salbiy holatlar ham kuzatilmoqda, bular misolida: oiladagi ajrashishlar, nosog‘lom muhit, ehtiyojmandlik, jinoyatga qo‘l urish holatlari va qator ijtimoiy-ma’naviy muammolar uchramoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Oila haqida yevropa donishmandlari qarashlari. [https:// arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/ pedagogik-psixologiya/oila-haqida-donishmandlarning-qarashlari](https://arxiv.uz/ru/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/oila-haqida-donishmandlarning-qarashlari).
2. Abu Ali Ibn Sino „Tadbiri manzil“ asari.
3. Karimov I.A. „Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch“. – Toshkent, 2008.
4. Oila manfaatlarini ta’minlash borasidagi 1998-yilda amalga oshiriladigan davlat dasturi. Vazirlar Mahkamasi 45-son. <https://lex.uz/docs/-692590?ONDATE=05.03.1999>.
5. O‘zbekiston Respublikasi „Oila kodeksi“ 30.04.1998 <https://lex.uz/docs/-104720>.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 46-63-66-moddalar. [https://constitution. uz/](https://constitution.uz/).
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori „Mustahkam oila yili“ davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 10-son, 99-modda. <https://lex.uz/docs/-1967131?otherlang=1>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori „O‘zbekistonda oila instituti konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida“ PQ-3808-son. <https://lex.uz/uz/docs/-3797625>.



9. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. <https://lex.uz/docs/-3107036>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son qaroriga.2- ilova. <https://lex.uz/uz/docs/-3797625>.

